

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.Toirov	
Texnosivilizatsiya jarayonining ijtimoiy-falsafiy talqini	109
B.Mirzaraximov	
Turizmning axloqiy-estetik mohiyatini tadqiq etishga oid metodologik yondashuvlar	117
M.T.Voxidova	
Xondamir asarlarida axloq va adolat g'oyalarining falsafiy talqini	123
D.E.Normatova	
IX-XII asrlarda o'rta osiyoda ilmiy-axloqiy tafakkur rivoji	127
B.X.Tolipov	
Innovatsion iqtisodiy raqobat muhitining yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	131
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy falsafiy mazmuni	135
X.X.Yuldashxodjayev	
Musoxon Dahbidiy merosida davlat boshqaruvi va ma'naviy etakchilik hamda ijtimoiy mas'uliyatning zamonaviy talqini	140
G.I.Hashimova	
Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy, siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida	144
K.Shadmanov	
Literary and rhetorical traditions of latin and greek languages on the formation of english philosophical literature	149
A.A.Mo'ydinov	
Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini	153
A.A.Sayitxonov	
Tadbirkorlik faoliyatida innovatsion usullarning zaruriyati	159
G.M.Bozorova	
Muhammad Sharif Jurjoniyl ilmiy merosi va uning inson tafakkuri rivojidagi falsafiy ahamiyati	163
D.A.Sobirov	
Inson va mehnat: falsafiy tafakkur tarixida izlanish	168
Z.I.Narziev	
Aziziddin Nasafiyning tasavvuf ontologiyasi va ontologik konsepsiyalarga munosabati	177
X.M.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	183
S.Q.Qaxxorova	
Zamonaviy yoshlar ma'naviyati, axloqiy qadriyatlar va ruhiy barkamollikka yo'l	188
J.J.Shodiyev	
Inson ruhiy barkamolligi va jamiyat barqarorligini falsafiy yondashuv orqali rivojlantirish	192
N.U.Nurmatova	
Abdulkholiq G'ljduvoniylning "Maqomoti Yusuf Hamadoniyl" asari tahlili	196
A.A.Azimov	
Rudakiyl falsafiy qarashlarida ijtimoiy adolat va inson tarbiyasi	200
S.H.Pulatov	
Abu Homid al-G'azzoliyl va Ibn al-Arabiyl ilmiy merosining keyingi davrlarda tadqiqi va bugungi kundagi ahamiyati	206
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiyl ta'limotida borliq nazariyasi.	211
F.A.Qalandarova	
Ijtimoiy tabaqalanish evolyutsiyasi va uning zamonaviy jamiyatdagi yangi ko'rinishlari	217
S.R.Kutlimuratov	
Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishi	222
R.Sh.Bozorova	
Yangi O'zbekistonda ayollar intellektual va ma'naviy salohiyatini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar, qadriyatlar va gender adolatning ahamiyati	226
Z.A.Ergasheva	
Yangi O'zbekistonda huquqiy ta'lim va axloqiy tarbiyani uyg'unlashtirish zarurati	230
Sh.F.Polvonov	



UO'K: 355.3:316.7:351.74

TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA INNOVATSION USULLARNING ZARURIYATI

НЕОБХОДИМОСТЬ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

THE NEED FOR INNOVATIVE METHODS IN ENTREPRENEURIAL ACTIVITY

Sayitxonov Akmalxon Axatjonovich 
Farg'ona davlat universiteti f.f.b.f.d (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada tadbirkorlik faoliyatida innovatsion usullarni joriy etishning zaruruti, innovatsion usullarni iqtisodiy samaradorlik, raqobatbardoshlik va jamiyatni barqaror rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatida innovatsion usulda yondoshuvlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan.

Аннотация

В данной статье анализируется необходимость внедрения инновационных методов в предпринимательскую деятельность, влияние инновационных методов на экономическую эффективность, конкурентоспособность и устойчивое развитие общества. Также на научной основе освещены роль и значение инновационных подходов в предпринимательской деятельности в развитии общества.

Abstract

This article analyzes the necessity of implementing innovative methods in entrepreneurial activity, the impact of innovative methods on economic efficiency, competitiveness, and the sustainable development of society. The role and significance of innovative approaches in entrepreneurial activity in the development of society are also scientifically substantiated.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, innovatsiya, raqobat, natijadorlik, barqaror rivojlanish, tejamkorlik, texnologiya, resurs.

Ключевые слова: предпринимательство, инновации, конкуренция, результативность, устойчивое развитие, экономика, технология, ресурс.

Key words: entrepreneurship, innovation, competition, effectiveness, sustainable development, economy, technology, resource.

KIRISH

Hozirgi zamonda barqaror iqtisodiy o'sishning eng muhim garovi – raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, mahsulotlar uchun yangi xalqaro bozorlar topish va eksportni ko'paytirish, mintaqaviy tranzit salohiyatidan to'liq foydalanish hisoblanadi. O'zbekiston ham faol tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash uchun eng muhim masalalarni hal etishga harakat qilinmoqda. "...jamiyatda faol tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish, maktabdan boshlab oliy ta'lim muassasalarida ham tadbirkorlik to'g'risida darslar o'tish, to'garaklar tashkil etish, jumladan, "Tadbirkorlar akademiyasi"ni, sohaga qiziqayotgan yoshlar uchun esa konsalting markazlarini tashkillashtirish" [1.143] bugungi kun zaruratiga aylanmoqda. Mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, jamiyatda tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirishga yangicha yondashuvni o'zgartirishi, innovatsion tamoyillarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. O'zbekistonda iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy farovonlikni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun jamiyatda ijtimoiy faollikni oshirish, tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish, axloqiy munosabatlarni yuksak qadrlaydigan jamoani tarbiyalashga oid masalalar bugungi kunning dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirishning mohiyati ilmiy adabiyotlardagi ta'riflanishi va ijtimoiy-falsafiy tahlilini keltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. [2.14]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadbirkorlik madaniyati madaniy faoliyat hamda ijtimoiy munosabatlarning bir ko'rinishi bo'lib, insonning aqliy va jismoniy faoliyatining yuksak ko'rinishi hisoblanadi. Tadbirkorlik madaniyati to'g'risida oxirgi aniq bir tasavvur mavjud emas. Ba'zi kishilar ularni oldi-sotdi bilan shug'ullanuvchi kishilar ba'zilar esa o'z nafsini, foydasini ko'zlab u yoki bu iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanadigan shaxslar, boshqa birovlar esa «jinoyatga moyil, qonunsiz yo'llar bilan pul topuvchi "chayqovchi"larni

nazarda tutadilar. Aslida tadbirkorlik qonun bilan ta'qiqlanmagan fuqorolarning mustaqil tashabbus faoliyati bo'lib, foyda va shaxsiy daromad olishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Tadbirkor o'z nomidan va o'zining mulkiy javobgarligi ostida foyda olish maqsadida mablag' sariflaydi hamda o'z manfaatini ko'zlagan holda jamiyatga foyda keltiradi. Shunday ekan, tadbirkorlik madaniyatini jamiyatda yuksak darajada shakllantirish uchun avvalo tadbirkorlik borasida to'g'ri qarashni shakllantirish, tadbirkorlik muhitini shakllantirish talab etiladi.

Falsafada tafakkur eng avvalo, ijtimoiy tarxiy jarayon, kishilarning bilish faoliyati, predmetlar va hodisalar muhim aloqa va munosabatlarini bilish faoliyati yangi g'oyalarni ishlab chiqish, hodisalarni oldindan anglash va aytish jarayoni sifatida o'rganiladi. Bugungi kunda global iqtisodiy muhitda raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda, tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish uchun innovatsion usullarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsiyalar iqtisodiy jarayonlarni modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish hamda bozor ehtiyojlariga mos echimlar yaratishda asosiy vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Buyuk faylasuf Abu Nasr Farobiy insonning ijtimoiy mohiyati haqidagi quyidagi fikrni ilgari suradi. "Insoniy vujudan maqsad eng oliy baxt saodatga erishuvdir, avvalo u baxt saodatning nima va nimalardan iborat bo'lishini bilishi unga erishuvni o'ziga g'oya va eng oliy maqsad qilib olish, butun vujudi bilan maftun bo'lishi kerak" [3.57]. Shu bois yurtimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, jamiyatda tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish va bu boradagi yondoshuvlarni o'zgartirish, innovatsion usullarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. Tadbirkorlik madaniyati madaniy faoliyat va munosabatlarning bir ko'rinishi bo'lib, inson aqliy va jismoniy faoliyatining yuksak ko'rinishi hisoblanadi [4.11].

Innovatsiyalar tadbirkorlikda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarning sifati hamda raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ular resurslardan tejamkor foydalanish, ish jarayonlarini avtomatlashtirish va mehnat unumdorligini oshirish imkonini yaratadi.

Tadbirkorlikda innovatsion usullar juda muhim, chunki ular orqali biznes samaradorligi, raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanish ta'minlanadi. Innovatsion usullarga tayanish bu tadbirkorlarga va ishlab chiqaruvchilarga bozordagi raqobatchilardan ustunlikka erishishga yordam beradi. Ya'ni innovatsion g'oyalar va yangi modeldagi texnologiyalar orqali mahsulot yoki xizmatlar sifatini yaxshilash mumkin. Bu orqali tadbirkorlik subyektlari nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro miqyosda ham faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, "innovatsiya – texnologiyalarni anglatadi yoki ushbu jamiyatda nimadir yangi narsa amaliyotda qo'llanilishini anglatadi" [5.28].

Innovatsion yondashuvlar tadbirkorlarga yangi bozor segmentlarini ochish, iste'molchilarning ehtiyojlarini chuqur o'rganish va ularga mos echimlar taklif qilish imkonini beradi. Marketingda raqamli tahlil va sun'iy intellektdan foydalanish tendensiyalarini bashorat qilish hamda mijozlarga individual xizmat ko'rsatish imkoniyatini yaratadi. Innovatsion usullar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Hozirgi zamonda global ekologik barqarorlik masalasi dunyo miqyosida dolzarb muammoga aylandi. Fuqarolarda tadbirkorlik madaniyati pastligi sababli noqonuniy, puxta o'ylanmagan faoliyati oqibatida tabiiy muhit o'zgarib, resurslar tugab bormoqda, bu esa butun bashariyatning istiqboliga xavf tug'dirmoqda. Bu holat asta-sekin rivojlanib, so'nggi o'n yilliklarda yanada jadallashdi. Insoniyat taraqqiyot tomon intilib, tabiatdan foydalanar ekan, uning qonuniyatlarini etarlicha inobatga olmadi, natijada bugungi kundagi ekologik inqirozga duch keldik. Tabiiy muhitning izdan chiqishi - jumladan, ob-havo o'zgarishi, atmosfera va suv havzalarining ifloslanishi, o'rmonzorlarning qirqilishi, hayvonot va o'simlik turlarining kamayishi - iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu muammolar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini kuchaytirmoqda. Misol uchun, iqlim o'zgarishi dehqonchilikka zarar etkazmoqda, bu esa oziq-ovqat xavfsizligini tahdid ostiga qo'yadi. Natijada, zanjirli reaksiya - oziq-ovqat tanqisligi yuzaga kelib, u ijtimoiy va siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin. Ekologik muammolarni hal qilish uchun faqat texnik echimlarning o'zi etarli emas, tadbirkorlarning faoliyatini va jamiyatdagi mas'uliyatini ham o'zgartirish lozim.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq [6.237] bo'ladi. Darhaqiqat, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va "yashil texnologiyalar"ni joriy etish barqaror rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan sanaladi.

FALSAFA

Innovatsion tadbirkorlik faqat iqtisodiy faoliyat bilan cheklanib qolmaydi, balki jamiyatning ijtimoiy rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Yangi ish o'rinlari yaratilishi, inson kapitali rivoji va ijtimoiy infratuzilmaning takomillashuvi, innovatsion loyihalar orqali yangi sohalar va kasblar vujudga keladi, bu esa iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Yangi ish joylarini yaratish, aholi farovonligini oshirish, kishilar mehnat sharoiti va tyrmysh tarzini yaxshilash degani. Shy bilan birga mamlakatda aholining intellektual calohiyati yuqori darajaga ko'tarilishi iqtisodiyot real sektorida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga zamin yaratadi. Natijada jamiyat a'zolari ehtiyoji qondirilishi doimiy ravishda ta'minlab boriladi. Bygyngi kynda ilm-fan va ta'lim incon faoliyatining barcha cohalariga yangi texnologiyalarni joriy etish, mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshirish, tyrmysh darajacini ko'tarishning myhim shartiga aylanib bormoqda. Ilm-fan va ta'lim cohacidagi inctitytsional o'zgarishlar, birinchi navbatda, o'qitish cifati, ilmiy calohiyat darajacini oshirishga qaratilgan bo'lca, ikkinchidan innovatsiyalarni rivojlantirish negizida milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shyning ychyn recpyblikamizda intellektual calohiyatni oshirish va ylarda rag'batlantirish tizimini keng joriy etish bo'yicha yctyvor vazifalar belgilangan. O'zbekiston Prezidenti "taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Bu bizga rivojlanishning eng qisqa yo'lidan borish imkonini beradi" [7.24] deb ta'kidlaganlar va bu fikr bugungi kunda o'z tasdig'ini topib kelmoqda.

Innovatsion usullar mijozlar ehtiyojlarini qondirishda zamonaviy yondashuvlar va ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda muhim rol o'ynaydi. Ilmiy nuqtayi nazardan, innovatsiya faqat yangi mahsulot yaratish emas, balki xizmat ko'rsatish, boshqaruv, marketing va mijoz bilan muloqot qilish usullarini takomillashtirish jarayonidir. Masalan, Amazon yoki Alibaba kabi kompaniyalar mijozlarning oldingi xaridlarini tahlil qilib, ularga individual takliflar beradi. Bu personallashtirilgan marketing usulidir, u mijoz ehtiyojini aniq va samarali qondirishga yordam beradi. Mijoz ehtiyojlari tez o'zgarib boruvchi sharoitda innovatsiya raqobatbardoshlikning asosiy omili. Yangicha dizayn, energiya tejankor, ekologik toza va intellektual funksiyalarga ega mahsulotlar mijozlar uchun qadri bo'ladi. Innovatsion usullar mijoz ehtiyojlarini qondirishda quyidagi ustunliklarni yaratadi:

- ehtiyojlarni tez va aniq aniqlash;
- xizmat ko'rsatishni individuallashtirish;
- mijoz tajribasini yaxshilash;
- ishonch va brendni oshirish;
- raqobatda ustunlikni ta'minlash.

Shunday qilib, innovatsion usullar — bu nafaqat yangi g'oya, balki mijozni markazga qo'ygan iqtisodiy va ijtimoiy jarayonni ifodalaydi.

XULOSA

Globalashuv va raqobat muhitida mijoz ehtiyojlarini to'liq va samarali qondirish har qanday korxona yoki tashkilot faoliyatining asosiy vazifasiga aylangan. Bugungi kunda an'anaviy bozor mexanizmlari o'rniga raqamli iqtisodiyot va innovatsion usullar tobora kuchayib bormoqda. Shu sababli, mijoz ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish, ularga mos individual takliflar ishlab chiqish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini innovatsion asosda tashkil etish dolzarb vazifadir. Innovatsion usullar tadbirkorlik faoliyatining zamonaviy bosqichida asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Ular iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, raqobatbardoshlikni ta'minlaydi va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Shu sababli, har bir tadbirkorlik subyekti o'z faoliyatida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlamoq joizki, innovatsion usullar-bu zamonaviy bozor iqtisodiyotida mijozni markazga qo'ygan strategik vosita bo'lib, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.—Тошкент.:Ўзбекистон, 2021. —Б. 143
2. A.A.Sayitxonov. "Tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirishda innovatsion faoliyatning ijtimoiy-falsafiy tahlili" fal.f.b.f.d.(PhD) dissertatsiyasi.-Andijon, 2022 yil. —B 142
3. Форобий Ф.Н. Фозил одамлар шаҳри. Т.: Ўзбекистон, 1994 йил.-330.бет
4. A.A.Sayitxonov. "Tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirishda innovatsion faoliyatning ijtimoiy-falsafiy tahlili" fal.f.b.f.d.(PhD) disser.avtoreferati.-Andijon, 2022 yil —B 48.
5. Innovation Policy A Guide for Developing Countries. The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. 1818 H Street, NW, 2010. 436.
6. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси.—Тошкент: "О'zbekiston" нашриёти, 2021.464 бет

7. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси.–Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021.464 бет